



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA AMALIYOTI MASALALARI

QUYI ZARAFSHON TOPONIMLARINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI HAQIDA

Yuldashev Jurabek Uralovich

Navoiy davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: ushbu tezisda Quyi Zarafshon toponimlari tarkibida uchraydigan ayrim grammatik shakllar tahlil qilingan bo'lib, ularning so'z yasovchanlik xususiyatlari, shuningdek, nom yasashdagi o'rni misollar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: Quyi Zarafshon, toponim, toponimning tarkibi, grammatik shakl, so'z yasovchan, nom yasash.

Quyi Zarafshon toponimiyasi o'zining tarkibiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Unda sodda, sodda yasama, qo'shma hamda birikmali toponimar uchraydi.

Hudud toponimiyasidagi sodda yasama toponimlar asosga formant qo'shilishidan shakllangan bo'lib, bunday formantlar sirasiga *-kent, -kat (-qat), -ganch, -gan, (-qon), -qa, -diz, (-tez), -mon, (-man), -mitan (-metan, -maton), -fag'n, (-bag'n, -bog'), -voq, -duvon, (-tuvon, -devol, -duvol), -kana, (-xona, -kan), -ob, (-ab), -kom, -kesh, (-kash), -mas, (-mos, -mast), -marg', -dak, (-daq, -doq, -toq), -tug', (-tuq), ko'h, -jon, (-jan, -shon, -jam), -ton, (-don), -var* va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu shakllarning toponim yaslashidagi o'rni haqida T.Nafasov ham ma'lumot bergan [Nafasov, 22-24].

Aslida toponimlarning tuzilishini o'rganish birmuncha murakkab jarayondir. Chunki ayrim joy nomlari tildagi onomastik leksika sathidagi yasama so'zlardan tuzilgan. Shuningdek, ba'zi so'zlar onomastik leksika doirasiga o'tguncha yasovchi qo'shimchani to'la qabul etib, toponimlashuv jarayonida onomastik-grammatik jihatdan shakllangan [Kilichev, 149]. Turdosh ot doirasida yasama hisoblangan bunday so'zlar toponimlashuv hodisasi tufayli nom uchun tanlanib hech bir o'zgarishsiz toponimiya tizimiga o'tadi [Enazarov, 106].

Toponimlarning yasashida faol ishtirok etuvchi qo'shimchalar sirasiga: *-lar (Arablar, Beklar); -on (Mang'iton, Mirzoyon); -ot (Bog'ot, Ushot); -ak (Savrak, Chuqurak); -ar (Og'ar); -goh (Namozgoh); -zor (Bodomzor); -li (Darg'ali); -lik (Beklik); -loq (Toshloq); -ma (Og'itma); -cha (Dehcha); -chi (Ayronchi); -iston (Registon)* kabilarni kiritish mumkin.

Akademik A.P.Hojiyev joy nomini bildiruvchi ot yasovchilar haqida fikr yuritib, o'rin-joy bildiruvchi otlar borligi (*-loq -zor, -iston, -xona, -goh, -lik*), ulardan *-loq, -zor, -iston, -don, -lik* qo'shimchalari deyarli mahsulsiz yasovchilarga aylanganini bayon etgan. Jumladan, *-loq* qo'shimchasi biror narsa ko'p bo'lgan, yerni qoplagan joy ma'noli so'z yasashini (*qumloq, toshloq*) ko'rsatgan [Hojiyev, 95]. Darhaqiqat, *-loq, -zor, -goh, -lik* va boshqa qo'shimchalar tarixan toponimlarni yasashda faol bo'lgan. Bunga Buxoro viloyati toponimiyasidagi toponimlar tarkibida uchraydigan ayrim topoformantlarni sharhlash orqali amin bo'lish mumkin.

O'zbek tilida *-lar* qo'shimchasi otlarga qo'shilib kelib, predmetning birdan ortiqqligini ko'rsatadi [G'ulomov, 427]. Mazkur qo'shimcha noma'lum ko'plikni, hurmatni, biror fikrni ta'kidlashni, mavhum tushunchalarni konkretlashtirishni, umumiylikni, takrori ham bildiradi. Toponimiyada esa *-lar* toponim yasovchi faol qo'shimcha sanaladi. S.Qorayev *arablar, beklar, boylar, zaragarlar, moxovlar, shayxlar, shuningdek, ko'paklar, shahallar, echkilar, qarg'alar* kabilar *-lar* qo'shimchasi vositasida atoqli otga – toponimga aylanganligini qayd qilgan [Qorayev, 8-9]. S.Karimov ushbu qo'shimcha borasida fikr bildirib, *-lar* shakl yasovchilik doirasidan tashqariga chiqishi va so'z yasovchilik vazifasini bajarishini qayd etgan [Karimov, 36]. Shuningdek, *-on* qo'shimchasi O'zbekiston sharoitida aksari toponim yasaydi va kishilarning qandaydir ijtimoiy guruhga mansubligini bildiradi. Bular jumlasiga muayyan millatga mansublik (*Arabon*), qandaydir urug'-aymoqqa mansublik (*Mang'iton*), ma'lum

tabaqaga mansublik (*Malikon*), kasb-hunarga mansublik (*Zargaron*), diniy e'tiqodga mansublik (*Mug'iyon*) va boshqalarni kiitish mumkin [Qorayev, 9].

Toponimlar tarkibida *-li* formanti vositasida yasalgan toponimlar ko'plab uchraydi. Mazkur topoformant tatar, turkman, qozoq tillariga mansub toponimlarda ham faol qo'llanadi.

-li sifat yasovchi qo'shimchalarning eng faol qo'llanadigani sanaladi. Bu affiks tarixiy bitiklar tilida o'zak so'zdan olingan bo'lib, biror narsaga egalik, kasbiy yoki hududiy mansublikni ifodalagan. Bu affiks ko'plab etnonimlar tarkibida uchraydi: *Badroqli, Boymoqli, Darg'ali, Gugurtli, Ilonli, Ko'rpali, Qirg'ili, Sirg'ali, Taroqli, Vixtamg'ali, Yoychili, Chovli, Cho'michli* kabi. Ayrim toponimlarda *-li* shakli ko'rinadi, lekin bular *ali* so'zining qisqargan shaklidir: *Xidreyli* (Xidir eli), *Aleli* (Ali eli), *Saydali* (Said ali) kabi. Tarkibida *-li* topoformanti bo'lgan toponimlar biror predmet, narsa yo belgining shu obyektida mavjudligini, borligini ko'rsatadi: *Jiydali, Terakli, Tolli* kabi [Kilichev, 155].

Tadqiqotchi B.Kilichev *-chi* topoformantli joy nomlari haqida fikr yuritib, ularning Quyi Zarafshon, xususan, Buxoro viloyati hududida ko'p uchrashini qayd etgan. Olimning ta'kidlashicha, bu nomlarning ko'pchiligi topoasosdan anglashilgan predmet va mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi ayrim kishi yoki kishilar guruhi, jamoalar nomi, shuningdek, ularning laqablari asosida vujudga kelgan: *ayronchi, temirchi, yo'lchi, ishchi, xizmatchi* kabi. Hududdagi *Ayronchi, Dukchi, Ipakchi, Ko'kchi, Mo'ynachi, Pichoqchi, Po'latchi, Qaymoqchi, Qulonchi, Surmachi, Tegirmonchi, Temirchi, Tikonchi, Tovuqchi, To'pchi* kabi toponimlar tarkibida *-chi* mavjud, lekin bu nomlarning hammasi ham *-chi* yasovchisi vositasida shakllanmagan. Jumladan, *Po'latchi* (naymanlarning bir tarmog'i), *Tuyachi* (turkman juzlarining bir urug'i) [Kilichev, 156].

Xulosa sifatida aytish o'rinliki, Quyi Zarafshon toponimiyasida sodda yasama toponimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning yasalishida ishtirok etgan shakllar boshqa hududlar toponimiyasida ham keng qo'llanadi. Ularni tadqiq etish, lisoniy xususiyatlarini aniqlash, nomlarning yasalish holatlarini oydinashirish o'zbek toponimiyasi uchun muhim jihatlardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегалиев Н., Туробов А. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд, 2015. – Б. 8-9.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг грамматик услубияти. – Самарқанд, 2012. – Б. 36.
3. Kilichev B.E. Buxoro viloyati toponimlarining lingvistik tadqiqi: Филол.фанл.докт. (DSc) ... disser. – Buxoro, 2024. – В.149; 155; 156.
4. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 22-24.
5. Серебренников Б.А. О методах изучения топонимических названий// Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 1959. – № 6. – С. 37.
6. Субаева Р.Х. Взаимодействие русского и татарского языков в топонимике Татаристана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казан, 1963. – 19 с.
7. Эназаров Т., М. Хусанова, А.Есенмуратов. Ўзбек номшунослиги. – Тошкент: Наврўз, 2015. – Б. 106-114.
8. Ғуломов А., Тихонов А., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 427.
9. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 90-95.
10. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – В. 8-9; 212.